



## BENEFICIAL PROPERTIES OF FERULA PLANT

Ahmadjonov Abrorbek Ikromjon o'g'li<sup>1</sup>, Mahammatova Sevara Ikromjon qizi<sup>2</sup>

<sup>1,2</sup> Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology  
Faculty of Agricultural Storage and Processing  
1st stage student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5068407>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> June 2021  
Accepted: 25<sup>th</sup> June 2021  
Online: 30<sup>th</sup> June 2021

### KEY WORDS

resin, glue, loamy soils,  
bark, root, Koxiston  
bark, flaky bark, celery  
(umbrella flowers),  
plantation, raw  
material, medicinal.

### ABSTRACT

*In this article you will get acquainted with the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan PQ-3617 dated March 20, 2018 and the beneficial properties of the fragile plant that grows on sandy soils in sandy deserts, mountains and foothills.*

## FERULA O'SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI

Ahmadjonov Abrorbek Ikromjon o'g'li<sup>1</sup>, Mahammatova Sevara Ikromjon qizi<sup>2</sup>

<sup>1,2</sup> Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti  
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash fakulteti  
1 - bosqich talabasi

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-iyun 2021  
Ma'qullandi: 25-iyun 2021  
Chop etildi: 30-iyun 2021

### KALIT SO'ZLAR

smola, yelim, soz tuproqli  
yerlar, po'stloq, ildiz,  
Koxiston  
kovragi sassiq kovrak,  
selderdoshlar (soyabon  
guldoshlar), plantatsiya,  
xomashyo, dorivor.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada siz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-martdagi PQ - 3617 qarori va qumli cho'llar, adirlar, tog'lar va tog' oldi yalangliklarda, soz tuproqli yerlarda o'suvchi kovrak o'simligining foydali xususiyatlari bilan tanishasiz.*

**Kirish:** Malumki, dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50% dan ko'prog'i dorivor

o'simliklar xom-ashyosidan tayorlanmoqda. Ko'pchilik mamlakatlarda, shu bilan birga, respublikamizda ham

farmatsevtika sanoatini jadallik bilan rivojlanishi bunday korxonalarining dorivor o'simliklar xomashyosiga bo'lgan talabini keskin ortishiga sabab bo'lmoqda.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-

martdagi respublikada kavrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom-ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish hamda eksport qilish to'g'risidagi PQ-3617 Qarori asosida kavrak plantatsiyalarini tashkil etish va qayta ishlash uyushmasi tashkil etilgan.



Kovrak – (Ferula) turkumi selderdoshlar (soyabon guldoshlar) – Apiaceae (Umbelliferae) oilasiga mansub bo'lib, ko'p yillik o't-o'simlik. Kovrakning yer yuzida 160 dan ziyod, O'rta Osiyo Respublikalarida 104, mamlakatimizda esa 50 dan ortiq turlari uchraydi. Smola –yelim olishda sassiq kovrak, Koxiston kovragi kabi turlari ishlatiladi. Kovrak respublikamizning Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining qumli cho'llar, tog' va tog' oldi yalangliklarida, soz tuproqli yerlarida o'sadi. Tabiatda *Ferula assa –foetida L.* keng tarqalgan bo'lib,

yelim – smola asosan shu turdan olinadi. Bu dorivor o'simlik tabobatda bemor organizimiga ijobiy ta'sir etuvchi biologik faol modda hisoblanadi. Dorivor vosita sifatida o'simlikning ildizi, guli, mevasi, shirasi vaboshqa qismlaridan foydalaniladi. Tabobat otasi bo'lmish Abu Ali ibn Sino bobomiz kovrakga shunday ta'rif berganlar: Kovrak urug'ining qaynatmasi (uning urug'i supurginikiga o'xshash malla rang, shakli ham o'xshab ketadi) 3 mahal 50 grammdan ichilsa, ona suti ko'payadi. Shirasiga anjir qo'shib yeyilsa, sariq (gepatit) kasalligini tuzatadi. Yelimiga murch, sirka qo'shib, yomon yaralarga surilsa, foyda qiladi. Soch to'kilishiga ham juda foydalidir. Kovrakning yelim-smolasi xalq tabobatida



o'pka sili, o'lat, zaxm, ko'k yo'tal, tish og'rig'i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun, hamda quvat beruvchi, balg'am ko'chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida qo'llaniladi. Ilmiy tabobatda esa kovrak yelim-smolasi – "asafetida" nomi bilan kukun, emulsiya va tindirma holida og'riq qoldiruvchi, balg'am ko'chiruvchi va tinchlantiruvchi sifatida ishlatiladi. Sharq mamlakatlari - Eron, Pokiston, Afg'oniston va Hindistonda kovrak shirasi va ildizi oziqovqat sanoatida ziravor sifatida, kosmetika sanoatida attorlik vositalari ishlab chiqarishda foydalaniladi. Zamonaviy tabobatda kovrak ildizi yelimidan tinktura , pilyula va

emulsiyalar tayyorlab astmaga, isteriya va asab sistemasining boshqa kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Kovrakdan tayyorlangan galen preparatlarining arteriyal bosimni pasaytirishi, qil tomirlar mortligini bartaraf etib, mikroblar ko'payishiga yo'l qo'ymasligi tajriba sharoitida aniqlangan. Kovrak ildizi va mevasidan ichish uchun kukun dori va qaynatma tayyorlanadi, bargi va mevasidan tayyorlangan qaynatmalar badan terisiga qo'yiladigan bog'lamlarda ishlatiladi. Kovrak o'simligi kimyoviy tarkibi jixatidan ham boshqa o'simliklardan ajralib turadi.

N/s	Urug' tarkibi	Foizda %
1	Protein	19%
2	Yog`	8%
3	Azot ekstraktiv moddalar	37 % dan 47 % gacha
4	Klechatka	23 – 27 %

Yuqoridagi malumotlardan ko'rinib turibdiki, kovrak o'ta dorivor o'simlik. Ammo uning taqdiri bugungi kunda xavf ostida turibdi. Kovrakdan olingan yelim bozorlarda hufyona tarzda sotilmoqda. Ildizi kesilgan kovrakdan olinadigan dastlabki yelimning bir kilosi 800 ming so'm bo'lsa, keying olinadigan yelimning baxosi 600 ming so'm, undan keyingilarining' rtacha narxi 300 ming

so'mni tashkil etmoqda. Kovrak o'simligining yo'qolib ketishining oldini olish uchun qonuniy choralar ko'rilishi lozim, yani ma'muriy va jinoiy kodekslarga tegishli moddalar kiritilmas ekan, kovrakdan yelim olish yildan-yilga ko'payib boraveradi. Natijada Kovrak o'sadigan maydonda ularning urug'ini ham topish amrimahol bo'lib qolishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent 2000-yil.
2. O'simliklar olami. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashiryoti Toshkent-2018
3. w.w.w.Uzpharmagency.uz
4. w.w.w.xabar.uz